JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAMIDOVA SEVARA BAXTIYOROVNA

INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDA BADIIY MATN PARADOKSLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chogʻishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI BOʻYICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Jizzax – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAMIDOVA SEVARA BAXTIYOROVNA

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BADIIY MATN PARADOKSLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Jizzax – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil1468 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida jdpu.uz va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Mamatov Abdugafur Eshonkulovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Jumaboyeva Jamila Sharipovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Nasrullayeva Nafisa Zafarovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 raqamli Ilmiy Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024- yil "_17_" _aprel_ soat _10⁰⁰_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 130100, Jizzax, Sharof Rashidov shoh ko'chasi, 4. Tel.: (+99872) 226-13-57, 226-21-73; faks: (99872) 226-46-56; e-mail: info@jdpu.uz. Jizzax davlat pedagogika universiteti bosh bino, 2-qavat, kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_50_ -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 130100, Jizzax, Sharof Rashidov shoh ko'chasi, 4.Tel.: (+99872) 226-13-57, 226-21-73; faks: (99872) 226-46-56

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "_2_" _04_ kuni tarqatildi.
(2024-yil "_2_" _04_ dagi _1_ - raqamli reestr bayonnomasi)

U.A.Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlar doktori, professor

F.E.Ibragimova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filologiya fanlar nomzodi, dotsent

U.Qosimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

4

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida turli tizimli tillarning madaniyat rivojidagi oʻrni, jamiyatning ijtimoiylashuvidagi ahamiyati, insonning ruhiy ongidagi real jarayonlar oqimining lisoniy manzarasini yaratish va chogʻishtirish amalga oshirilmoqda. Tilga antropotsentrik yondashuv talabining oshib borishi, muayyan millatga xos madaniy belgilarning tilda aks etishi, olamning lisoniy manzarasini yaratish asnosida til birliklari lingvopragmatik, lingvokognitiv, antropotsentrik paradigma kabi yangi konsepsiyalar asosida talqin etilmoqda. Xalq anʼanalari, qadriyatlari, urf-odatlarini ifodalovchi paradokslarni nafaqat bir til doirasida, balki turli tizimli tillar lingvomadaniyatshunosligida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida paradokslar, jumladan, frazeologik paradokslarning universal va unikal jihatlari talqiniga bagʻishlangan qiyosiy-chogʻishtirma tadqiqotlar muhim oʻrin tutmoqda. Paradokslar inson tafakkurining mahsuli sifatida mantiq, falsafa, tilshunoslik, psixologiya va boshqa fanlar doirasida oʻrganilib, ularning qiyosiy-tipologik lisoniy belgilari yoritilmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda paradoksal tuzilmalar lingvo-stilistik hodisa sifatida, kognitiv aspektda, shuningdek, lingvokulturologik yoʻnalishda hamda xorijiy tillarini oʻqitishda matn bilan ishlash amaliyoti dolzarb boʻlib qolmoqda.

Mamlakatimizda soʻnggi yillarda ilm-fanni rivojlantirish, jumladan, xorijiy tillarni oʻqitish borasidagi ilmiy, ilmiy-amaliy izlanishlar koʻlamini kengaytirish maqsadida tadqiqotchilar oldiga qator vazifalar qoʻyilmoqda. "Oʻquv jarayonini metodik qoʻllab-quvvatlash, oʻquvchilarning asosiy til koʻnikmalarini mustahkamlash va qoʻllashda koʻmaklashish…"[1] ga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Xorijiy tillarni nazariy va amaliy egallash xalqlararo munosabatlarni mustahkamlash, ingliz va oʻzbek tillaridagi til birliklarini, jumladan, til paradokslarini, ularning milliy-madaniy xususiyatlarini oʻrganish zarurligini koʻrsatmoqda. Paradokslarni milliy-madaniy jihatdan tahlilga tortish, oʻxshash, farqli va oʻziga xos tomonlarini chogʻishtirma tahlil orqali aniqlash ushbu yoʻnalishda hal etilmagan masalalardan biri boʻlib hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida", 2021-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "Oʻzbekiston yangi taraqqiyot davrida taʼlim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida", Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son "Xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

---

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son "Xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Qarori. lex.uz.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda til tizimining turli sathlariga oid birliklarning nutqiy muloqot muhitlarida shakllanishini o'rganish, ularning sintaktik-semantik va pragmatik ko'rsatkichlari munosabati va o'zaro bog'liqligi, xususan, badiiy matnda paradoks va uning sintaktik xususiyatlari, kognitiv tabiati alogik (mantiqsiz) til birliklari va ziddiyat, prezumpsiya, presuppozitsiya va implikatsiya bo'yicha muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan[2].

XX asr absurd adabiyoti yangi yo'nalishining vakillari E.Ionesko, G.Pinter, S.Mrojek[3] va boshqalar tomonidan dunyoning lisoniy manzarasini, atrof-muhit hamda voqelikni tasvirlashda paradoksdan foydalanishning lingvistik tavsifi, pragmatik xususiyatlari tahlil etilgan. Tilshunos olimlar badiiy matnlarda paradoks mutlaqo tabiiy va hatto zarur element hisoblanishini ta'kidlaydilar.

Paradokslarni lingvomadaniy yondashuv asosida o'rganishda bir qator xorijiy tilshunos olimlar, xususan, ingliz olimlaridan A.P.Kovi, M.Omaziyu, K.Steyer, S.Xanston[4] larning ilmiy tadqiqot ishlari katta ahamiyatga ega. Lingvistik asarlarda paradoks, asosan, matnda muayyan vazifalarni bajaruvchi stilistik vosita, stilistika nuqtayi nazaridan esa paradoks badiiy asarda ekspressiv hamda hajviy effekt hosil qiladigan ziddiyat sifatida izohlanadi.

Badiiy matndagi paradokslarning lingvomadaniy xususiyatlari esa N.F.Alefirenko, V.A.Maslova, A.V.Kunin, V.N.Teliyalarning[5] ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

---

[2] Арнольд И. В. Стилистика. Современный английский язык: Учебник для вузов – Изд.8-е – М.: Наука, 2002. – 384с.; Танеев Б.Т.Семантика и прагматика парадоксальных высказываний: автореф. дис. канд. филол. наук – Уфа, 1988. – 16 с.; Заботина Е.Н. Когнитивное моделирование структур парадокса современных английских скетчах: автореф. дис. кандидата филол.наук: 10.02.04 – Санкт-Петербург, 2012. – 24 с.; Forrester M. A. Psychology of Language. A Critical Introduction. –London: Sage Publications, 1996. – 216 p The Oxford Dictionary of Quotations. Oxford, New York: Oxford University Press, 1992. – 1061 p.; Wilde O. The decay of Lying / http://cogweb.ucla.edu/Abstracts/Wilde_1889.html; Wilde. Letters on Dorian Gray. Mr. Oscar Wilde's Defense //Selections from Oscar Wilde. – M.: Progress Publishers, 1979. – 355 p.

[3] Ionesko E.The Editors of *Encyclopaedia Britannica*. "Theatre of the Absurd". *Britannica* online; Harold Pinter: The Absurdist-Existentialist Playwright// Journal of Social Sciences & Humanities of Shiraz University vol. 23, №.1, Spring 2006 (46); "Sławomir Mrożek, from the Encyclopædia Britannica". *Encyclopædia Britannica*.

[4] Cowie A.P. Phraseology. Theory, Analysis, and Applications.Oxford Stud-ies in Lexicography and Lexicology. – Oxford: Oxford University Press,1998.; Omaziü M. Patterns of phraseological unit's modifications. Häcki Buhofer, Annelies, Harald Burger, eds. Phraseology in Motion II. – Baltmannsweiler: Schneider, 2007; Steyer K. Corpus linguistic exploration of modern proverb use and proverb patterns. Computational and corpus-based phraseology: Recent advances and interdisciplinary approaches, Proceedings of the Conference Volume II. – London, UK, Geneva: Editions Tradulex, 2017. – P.45–52; Hunston S. Corpora and language teaching: issues of language. Cambridge University Press. – Cambridge: 2010. – P.137-169.

[5] Алефиренко Н.Ф. Провербальное порождение культурных концептов и их фразеологическая репрезентация // Филол. науки. 2002. № 5. – С. 72-81.; Маслова В. А. Лингвокультурное введение в теорию человека / В. А. Маслова // Вестник Московского государственного областного университета. Сер. Лингвистика. – 2019. – №3. – С. 21–28. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка – Москва, 2005. – С.313; Телия В.Н. Культурно-национальные коннотации фразеологизмов (от мировидения к миропониманию) // Славянское языкознание. XI Международный съезд славаняистов. – М.: Наука, 1993. – 314 с.

Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi hamda bu o'rinda paradokslarning stilistik imkoniyatlari masalalari o'zbek tilshunoslaridan D.U.Ashurova, O'.K.Yusupov, T.A.Bushuy, Sh.S.Safarov, A.E.Mamatov, N.M.Maxmudov, D.S.Xudayberganova, J.Sh.Jumaboyeva[6]larning ilmiy tadqiqotlarida muayyan tarzda yoritilgan. Frazeologik birliklarning turli tizimli tillar kesimida lingvomadaniy jihatdan chog'ishtirib o'rganishga ham talab oshib bormoqda. Bu sohada o'zbek olimlaridan Sh.Rahmatullayev, M.I.Umarxodjayev, Sh.S.Imyaminova, A.E.Mamatov[7]larning ilmiy tadqiqot ishlari ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga tilshunoslikda paradoksal hodisa, paradoksning ma'no tashkil etuvchi xususiyatlari, badiiy matndagi leksik imkoniyatlari masalalari yetarli darajada tadqiq qilinmasdan qolmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Turli tizimdagi tillarning lisoniy va tipologik xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi paradokslarning badiiy matnlardagi lisoniy va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilshunoslikda paradoks tushunchasining talqiniga munosabat bildirilib, uning oksyumoron, antiteza, antinomiya, xiazm kabi tasviriy vositalardan birlashtiruvchi va farqlovchi belgilarini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillarida paradoks tushunchasining lingvistik tavsifi, terminologik belgilari, paradoksal matnning sintaktik xususiyatlarini aniqlash, ingliz va o'zbek tillarida paradokslarning strukturaviy – semantik va lingvomadaniy jihatini tahlil qilish, paradokslarning uslub kategoriyasi va allegorik – aforistik xususiyatlarini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillarida paradoks va uning sintaktik xususiyatlari, paradoksning kognitiv tabiati, alogik (mantiqsiz) til birliklari va ziddiyat, prezumpsiya, presuppozitsiya va implikatsiya bilan bog'liq belgilarini ochib berish;

ingliz va o'zbek tillarida frazeologik paradokslarning lingvomadaniy jihatlarini tahlil etishdan iborat.

---

[6]Ашурова Д.У. Перспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики // Филология масалалари. – Тошкент, 2004. – №4. – Б. 37-40.; Юсупов Ў.Қ. Тилшуносликда янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилоҳлар// Филология масалалари. – Т., 2011. – №2. – Б. 9-15.; Бушуй Т.А. Проблема языка и нации в лингвокультурологическом аспекте // International scientific review. – 2019. – № LVI.; Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Самарқанд: Сангзор нашр, 2006. – 92 б.; Маматов А.Э.Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. – Андижон, 2012; Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 2012. – № 5. – Б.10.; Худайберганова Д.С.Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. док-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2015. – Б.18; Djumabaeva J.Sh.Translation Problems of Phraseological Units: Idioms and Set Expressions// Academic research in educational sciences, 2022.№3/4– Р.906-911.

[7] Раҳматуллаев Ш.Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 408 б.; Умарходжаев М.И. Основы фразеографии: автореф. дис. д-ра филол. наук. – М., 1981. – 56с.; Имяминова Ш.С. Немис тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Т.: Мумтоз сўз, 2011. – 80 Б. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Фил.ф. докт. дис. автореф. – Тошкент, 2000. – 56 б.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy asarlardan olingan matnlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillaridagi paradoksning leksik-sintaktik va funksional-semantik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada chog‘ishtirma, qiyosiy-tipologik, distributiv, transformatsion, sintaksem kabi tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paradoks hodisasining oksyumoron, antiteza, antinomiya, xiazm kabi tasviriy vositalar bilan ichki va tashqi zidlik kabi birlashtiruvchi va ma'noning dinamikligi singari farqlovchi belgilari mavjudligi ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida paradoksal ma'nolarning eksplikatsion va implikatsion shakllanishi, ularning strukturaviy-semantik, uslubiyi va allegorik-aforistik xususiyatlari asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillarida paradoksning grafik, fonologik, leksik, morfologik, sintaktik kabi lingvistik modellari aniqlangan, lingvokulturologik hamda stilistik xususiyatlari qiyosiy – chog'ishtirma aspektda ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi "o‘pkasini qo‘ltiqlamoq" (like a bat out of hell,to beat a hasty retreat), "oyog‘ini qo‘liga olib qochmoq"(get your skates on), "bir boshini ikkita qilmoq" (tie the knot, get hitched), "boshini olib chiqib ketmoq" (hit the road,duck out, storm off) kabi frazeologik paradokslarning ziddiyatli ma'no xususiyatlari va badiiy matndagi o‘rni aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida paradokslarning semantik – funksional va lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida to‘plangan materiallar, chiqarilgan xulosalar turli tizimli tillarni chog‘ishtirib o‘rganish hamda lingvokulturologiya, o‘rganilayotgan tillar madaniyati, til aspektlari, integrallashgan til kursi fanlarini o‘qitishda amaliy jihatdan yordam berishi asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillarida paradokslarning tahlili, chog‘ishtirilayotgan tillarning o‘ziga xos paradoksal xususiyatlari asosida to‘plangan til materiallari turli tizimli tillar paradokslarining qiyosiy-tipologik aspektdagi lisoniy belgilarini yoritishga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida paradoksal matnlarning tahlillari va ulardan olingan xulosalar ingliz tili matni ustida analitik va tahliliy ishlar olib borish, oliy ta'lim muassasalari o‘quv jarayonida, chet tillarini o‘qitishda matn bilan ishlash amaliyotida muhim vosita ekanligi ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida paradoks va uning sintaktik xususiyatlari, paradoksning kognitiv tabiati, alogik (mantiqsiz) til birliklari va ziddiyat, prezumpsiya, presuppozitsiya va implikatsiya bilan bog‘liq xususiyatlari dalillangan.

Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi chiqarilgan xulosalarning qat'iyligi, olingan tadqiqot natijalarining aniqligi va ishonchliligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va tadqiqot usullari, tahlil qilingan materiallar hajmining yetarliligi, nazariy ma'lumotlar ishonchli va mavjud manbalardan, jumladan, dissertatsiyalar, avtoreferatlar, frazeologik lug‘atlardan olinganligi, nazariy xulosa

va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi va erishilgan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o'zbek tillari adabiy me'yorlari, grammatikasi, leksikologiyasi, stilistikasi, tarjimashunosligi hamda lingvomadaniyatshunoslik bo'yicha nazariy manba ekanligi, shuningdek, tadqiqotning xulosalaridan, natijalaridan ilmiy maqolalar, magistrlik dissertatsiyalari, bitiruv malakaviy ishlarini yozishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijlarining amaliy ahamiyati shundaki, ilmiy ishdan olingan natijalardan "Lingvomadaniyatshunoslik", "Umumiy tilshunoslik", "Leksiko–logiya", "Frazeologiya", "Tarjima nazariyasi", "Qiyosiy tipologiya" kabi fanlar bo'yicha o'quv qo'llanmalar, darsliklar, lug'atlar, ma'ruza matnlarini yaratishda ingliz va o'zbek tillari misolida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillarida paradokslarning lingvomadaniy tahlili bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

paradoks hodisasining oksyumoron, antiteza, antinomiya, xiazm kabi tasviriy vositalar bilan ichki va tashqi zidlik kabi birlashtiruvchi va ma'noning dinamikligi singari farqlovchi belgilari mavjudligi ochib berilganligi to'g'risidagi xulosalardan "O'qish va yozuv" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-son buyrug'i bilan № 232-623-raqamda tasdiqlangan nashr guvohnomasi). Natijada darslikning ikkinchi qismining nazariy manbalar bilan boyitilishiga erishilgan.

ingliz va o'zbek tillarida paradoksal ma'nolarning eksplikatsion va implikatsion shakllanishi, ularning strukturaviy-semantik, uslubiy va allegorik-aforistik xususiyatlari haqidagi xulosalaridan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2020-2021 yillarga mo'ljallangan 561624-YeRR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillari institutining 2023-yil 4-apreldagi 888/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida yaratilgan uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqishda hamda talabalar va o'qituvchilarning bilim va malakalarini oshirishga hissa qo'shgan;

ingliz va o'zbek tillarida paradoksning grafik, fonologik, leksik, morfologik, sintaktik kabi lingvistik modellari aniqlangan, lingvokulturologik hamda stilistik xususiyatlari qiyosiy – chog'ishtirma aspektda ochib berilganligi haqidagi xulosalaridan Belarus davlat texnologiya universitetining 2021-2023 yillarga mo'ljallangan № 31-son "Texnika universiteti talabalari o'rtasida ikkinchi darajali lingvistik shaxsni shakllantirishning akmeologik kasbiy yo'naltirilgan modeli doirasida chet tilini o'zgaruvchan o'qitish texnologiyalari" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Belarus davlat texnika universitetining 2023-yil 6-apreldagi 31-VD-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqot materiallari universitetda talabalar uchun tarjimashunoslikda paradokslarning lingvokultrologik

xususiyatlarini o‘qitishni samarali shakllantirishda, loyihada eksperimental ishlarini amalga oshirishni tashkil etishda, shuningdek, madaniyatlararo muloqot yordamida talabalarning madaniyatlararo kompetentsiyalarini boyitishga yordam bergan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi "o‘pkasini qo‘ltiqlamoq" (like a bat out of hell,to beat a hasty retreat), "oyog‘ini qo‘liga olib qochmoq"(get your skates on), "bir boshini ikkita qilmoq" (tie the knot, get hitched), "boshini olib chiqib ketmoq" (hit the road,duck out, storm off) kabi frazeologik paradokslarning ziddiyatli ma'no xususiyatlari va badiiy matndagi o‘rni xususidagi xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O‘zbekiston" teleradiokanali DM "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Adabiy jarayon" va "Ta'lim va taraqqiyot" nomli radioeshittirishlarni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023- yil 31-martdagi 04-36-486-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va o‘zbek tillarida paradokslarning o‘ziga xos xususiyatlari, ziddiyatlikni anglatuvchi boshqa stilistik vositalardan farqlovchi belgilar hamda ingliz tilidagi badiiy matnlarda paradoksal matnlarning linvokultrologik aspektlari doirasida teletomoshabinlarda tasavvur shakllanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, ulardan 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 124 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad - vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiya tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Paradoks lingvistik fenomen sifatida**" deb nomlanib, u uch fasldan iborat. Paradoks tushunchasining lingvistik tavsifi deb nomlangan birinchi faslida paradoks tushunchasiga lingvistik tavsif beriladi. Paradokslar badiiy matnda stilistik vosita sifatida o‘z lingvistik an'analari, tekshirish obyekti, tadqiq yo‘li va usuliga ega bo‘ldi, zamonaviy yondashuvlar asosida o‘rganilib muayyan yutuqlarga erishdi[8]. Jumladan, paradokslarning

---

[8] Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – 381 с.; Соловян В.А. Языково-стилистические средства сатиры в немецком языке: Автореф. дис. ... канд. филол.

lingvokulturologik tadqiqi xorijiy tillar misolida hamda ularning chogʻishtirma tahlili anʼanaviy usullarda ham, zamonaviy usullarda ham bir qadar oʻrganilgan[9]. Paradoksal matnlarning struktural-grammatik, semantik-uslubiy, funksional jihatlari yoritildi.

Dunyo tillarining lugʻaviy – uslubiy tizimida alohida oʻrinni egallaydigan mazkur murakkab tabiatli birliklar jahon tilshunosligida ham, turkiyshunoslikda ham, oʻzbek tilshunosligida ham bir qadar oʻrganilgan boʻlmasin, ularning chogʻishtirma tahlili masalalari hanuzgacha oʻzining aniq yechimini topgan emas.

Paradoks (qadimgi yunoncha: *paradoxos* – “kutilmagan” (неожиданный), “ajablanarli” (странный), “gʻalati”[10] degan maʼnoni ifodalaydi. Paradoks turli ilmiy sohalarda keng qoʻllanilib, polisemantik, yaʼni koʻp maʼnoli termin sanaladi. Xususan, ilmiy sohada paradoksning qator maʼno qirralari farqlanadi. Jumladan, 1.Fikr, mulohaza, aqliy fikrlash umum tomonidan tan olingan yoki maʼqullangan fikrga zid boʻladi. 2. Kutilmagan voqeiylik va dastlabki tasavvurga zid tushuncha. 3. Nazariy va formal mantiqqa har qanday haqiqatni zid qoʻyish kabi keng koʻlamli maʼnolarga ega. Maʼlumki, maʼno va mantiqda zidlik antonim hodisasi bilan sinonim tarzda qoʻllanadi. Ammo paradoksning antonimlardan farqli xususiyatlari uning oʻziga xosligini anglatadi.

Ilmda paradokslarga “koʻpchilik tomonidan qabul qilingan anʼanaviy fikr va hayotiy tajribaga oʻz mazmuni yoki shakli bilan keskin zid boʻlgan, kutilmagan mulohaza, muhokama” deb ham taʼrif beriladi. Har qanday paradoks “shubhasiz toʻgʻri” (asoslimi, asossizmi, bundan qatʼi nazar) hisoblangan u yoki bu fikrni inkor etishdek koʻrinadi. “Paradoks” terminining oʻzi ham dastlab antik falsafada har qanday gʻalati, original fikrni ifodalash uchun ishlatilgan.

Paradokslar XX asr oxiri XXI asr boshida lingvistik tadqiq etila boshlandi. Bu ilmiy tadqiqotlarda paradoks hodisasining til jarayonlariga taʼsiri va paradoks taʼsirida badiiy matnda alohida mantiqiy maʼno kasb etishi tahlil hamda tavsif etiladi. Gʻarb tilshunosligida paradoksal maʼnolar u yoki bu voqelikka nisbatan fikrlash faoliyat yondashuvi asosida shakllanishi eʼtirof etiladi.

Paradoksallik va paradoksal matn tushunchalarining lingvistik tavsifi faslida til birliklari va matnda paradokslarning shakllanish jihatlari izohlanadi. Paradokslar badiiy nutqda, shu bilan birga jurnalistikada, kundalik ishlatiladigan nutqimizda, ilmiy sohalarda, rasmiy xabarlarda uchraydi. Paradoks XIX asrning oxiridan boshlab badiiy matnning tarkibiy elementi sifatida talqin etila boshlandi.

наук –М., 1960. – 23 с.; Тармаева В.Д. Когнитивная природа фразеологического парадокса (англ.яз.): дис. канд. филол. наук. – Иркутск, 1997. – 214 с.; Темяникова Э.Б. Когнитивная структура парадокса: на материале англ. яз.: дис. канд. филол. наук – М., 1998. – 206 с.; Трубецкой И.С. Основы фонологии –М.: Иностранная литература, 1960. – 371 с.; Умеренкова А.В. Лингво-когнитивное моделирование эффекта обманутого ожидания: автореф. дис. … канд. филол. наук: 10.02.19. – Курск, 2009. – 20 с.;

[9] Baldick Chris. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms //N.Y.: Oxford university press, 2001. – P . 183. Batanouny G.M. El. Syntactic and Semantic Classification of Paradox and their Relation to Reader's Interpretation. // Journal of Literary Semantics. –Canterbury, 1991. – XX/3. – p. 129-163.;Bertolet R. What is said: A theory of indirect speech reports /R.Bertolet. – Dordrecht etc.: Kluwer, 1990. – 251 p.; Ching M.K. L. A literary and linguistic analysis of compact verbal paradox. // Linguistic perspectives on Literature. – London, 1980. – p. 175-181.; Christ H.I. Irony, paradox and the Zen koan. // ETC. A Review of General Semantics. 1968 – vol. 25. – № 3. – p. 350-352.; Comorovsky C. Paradoxical microstructures in the drama of O.Wilde and J.Giraudou // Synthesis. – Bucarest, 1975. – vol. 2. – p. 155-173

[10] Oʻzbekiston Milliy Ensklopediya. Davlat ilmiy nashriyoti.Birinchi jild.Toshkent, 2000

Ingliz adabiyoti klassiklari Oskar Uayld va Bernard Shoular *"Paradoks ustasi"*[11] nomini olib, mualliflar ijodida paradoks matnning syujetli-kompozitsion darajasi va qahramonlar xarakterining paradoksal tabiatini ochib berish uchun uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Paradoks badiiy matnda ma'naviy-madaniy, semantik bog'liqlik, ekstralingvistik shart va omil, axborotlilik, kommunikativlik, pragmatiklik, kognitivlik, konseptualizm va boshqa o'zaro munosabatlarining belgilari bilan voqelik mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Paradokslar dunyo va inson tabiatini idrok etish va tushunishga yordam beradi.

Til va nutq tushunchalari farqlanganidek, zamonaviy lingvistik yondashuv doirasida til va nutq paradokslari ajratiladi. Maqol va matallar, shuningdek, paradoks asosida qurilgan ayrim og'zaki bir martalik birliklar – **til paradokslari** deyiladi. **Nutq paradokslari** atamasi alohida muloqot harakatini tavsiflovchi individual muallif shakllarini bildiradi.

Til va nutq paradokslari umumiy va alohida xususiyatlarga ega o'zgarmas komponentlar, alogizm, mantiqiy me'yordan og'ish, ziddiyat, gapning ikki qismining mos kelmasligi hamda umumlashtirishni o'z tarkibiga kiritadi.

Til va nutq paradokslarining ba'zi umumiy xususiyatlari sodda gaplar hosil qilishda ularning sintaktik tuzilishida kuzatiladi:

Best defense is offence.*(Eng yaxshi himoya –bu hujum)*

An obedient wife commands her husband. *(Itoatkor xotin turmush o'rtog'i bilan chiroyli munosabatda bo'ladi)*

Nutq paradokslari ularni bir yoki bir nechta jumla sifatida qurish uchun ishlatilishi mumkin: **Even things that are true can be proved** *(Oscar Wilde "The Picture of Dorian Grey"). (Hatto shak – shubha tug'dirmaydigan harakatlarni ham isbot qilib bersa bo'ladi.)*

Til va nutq paradokslarining mushtarak xususiyati umumlashganlik bo'lib, u ko'pincha maqol shaklida namoyon bo'ladi. L.I.Shvadskayaning ta'kidlashicha, maqollarining umumlashtiruvchi ma'nosining paradoksal komponentining tashqi belgilarini-so'zlar: *every, everybody, never* so'zlarini umumlashtirish mezoni deb hisoblash mumkin[12].

Tadqiqotimizda quyidagi ta'rifni asos qilib olamiz: Paradoks badiiy matnning ma'no-mazmun (semantik) muhitini, uni tarkibiga kiruvchi til birliklari ma'nosini o'zgartiradigan, yangi ma'nolar hosil qiladigan, muayyan bashorat qilinadigan (oldindan aytib beradigan) nostandart semantik konstruksiyadir.

Tadqiqotda paradoksning shakllanishida matnning o'rni va roli xususida ham fikr yuritilgan.Tilshunoslikda badiiy matn ma'lum darajada *"muallifning portreti"* sifatida qaraladi. Badiiy matn muallifning voqelik talqini sifatida yozuvchining niyatini ro'yobga chiqaradi, uning g'oya va tasavvurlarini tasdiqlaydi, muallif niyatini yetkazish vositasi sifatida paradoksning tanlanishi tasodifiy emasligini ta'kidlash lozim. Paradoks orqali badiiy matnga, insonning voqelikka nisbatan amaliy va ma'noviy faoliyati asosida umumlashtirilgan tajribasi bayon etiladi,

---

[11] Prados R.I. Oscar Wilde and B. Shaw.P. –1, https://www.scribd.com/doc/40611455/TOPIC-51-Oscar-Wilde-and-B-Shaw-Ines

[12] Швадкая Л.И. Пословицы и афоризмы английского языка как единицы постоянного контекста и структура их значения // Стил и контекст. – Л., 2000. – С. 94-102.

fikrni muayyan turkumlash amalga oshiriladi. Badiiy matndagi paradoksga murojaat qilish orqali muallif o'zining subyektiv kashfiyotini yetkazishga harakat qiladi, bir-biriga yaqin hodisalarning noaniqliklarini shaxsiy idrok etishni ta'kidlaydi, qarama-qarshi qutbli hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikni ochib beradi va shu tariqa real dunyo va idrokning subyektivligi, dualligi (ikki karralik)ni yetkazadi.

Paradoksal matnda qarama-qarshiliklarning dialektik o'zaro ta'siri ifodalanadi. Ularda *antitezalar, oksyumoronlar* asosida fikrlar ifoda etiladi. Ziddiyat mavjud bo'ladi, ammo bu ziddiyat haqiqatni ochib berishga qaratiladi.

Qarama-qarshilik (yaxshilik-yomonlik, yorug'lik-qorong'ulik, nafrat-muhabbat), ziddiyatlarni amalga oshiruvchi *antiteza*dan farqli o'laroq, paradokslik dastlab idrok etuvchi ongida bo'lmagan ziddiyatli tushunchalarni ifoda etadi, uning refleksiyasini faollashtiradi.

Voqelikni paradoksal idrok etish badiiy matnda "He was always late on principle, his principle being that punctuality is the thief of time.*(Oscar Wilde. The Picture of Dorian Gray) (Genri hali kelgani yo'q. U hamma joyga kechikib borishni o'ziga odat qilib olgan edi. Uning nazarida hamma ishini aniq vaqti – soatida qiladigan odam vaqtdan yutqazadi*) paradoksallashning asosida **"o'g'irlik"** ma'nosi, ma'no maydoniga *"punktuallik"* leksik birlik kiritilganda **"vaqt o'g'risi"** obrazi orqali anglash, interpretatsiya (talqin qilish) jarayonida punktuallik va halollikni o'g'rilik sifatida anglash yuz beradi.

Paradoksning adabiy-badiiy va stilistik uslub sifatidagi lingvistik tabiatini o'rganish bo'yicha ishlarning eng katta guruhini paradoksni stilistik kategoriya sifatida o'rganish tashkil etadi. Paradoksni stilistik uslub sifatida qarashga nisbatan yagona fikr hozirgi vaqtda stilistikada mavjud emas. Komik nazariyada paradokslar aforizmlar, hazillar va kalambur (o'yin)lar bilan bir qatorda stilistikada yumor va satira, frazeologik usullari ham farqlanib tavsif etiladi. Frazeologik birliklar tarkibiga 1.Turli funksional leksikani aralashtirish. 2.Turli stilistik bo'yoqdagi so'zlardan foydalanish 3.Mazmun va shakl orasida nomuvofiqlikni ataylab yaratish vositalaridan foydalaniladi.

Paradoksning allegorik tabiati. Tilshunoslar oksyumaron va paradoks kabi stilistik vositalarni farqlash maqsadga muvofiq emas va bu vositalar (usullar) allegorik (mantiqiy bo'lmagan) aloqalarning ma'lum turi sifatida o'rganilishini e'tirof etadilar.

Ilmiy nashrlarda paradoks va oksyumoronni ajratish masalasi bo'yicha o'xshash nazarlar uchrab turadi. Jumladan, "oksyumoron – paradoksning o'zi" yoki oksyumoronni "potensial paradoks sifatida" talqin qilish hollari uchraydi.

Fikrimizcha, paradoks va oksyumoronning lingvistik tabiatidagi o'xshashlik "semantik nomuvofiqlik" dan iborat. Ammo oksyumoronda bir biri bilan mantiqiy birlasha olmaydigan hodisalar birlashadi: *o'lik sukunat, zerikkan optimist, halol o'g'ri*, paradoksda esa isbotlangan haqiqat, ammo qarama-qarshilik mavjud bo'ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Ingliz va o'zbek tillarida paradoksning ma'no hosil qilish potensiali"** deb nomlanadi. Mazkur bobda paradoksning uslub kategoriyasi va allegorik – aforistik tabiati, badiiy matnda paradoks va uning

sintaktik xususiyatlari, paradoksning kognitiv tabiati: alogik (mantiqsiz) til birliklari va ziddiyat, prezumsiya, presuppozitsiya va implikatsiya, paradoksal matnning germenevtik tahlili tadqiq qilingan.

Aforistikaga oid ilmiy tadqiqotlarda paradoks va aforizm ayniyatlashtiriladi. Shuningdek, aforizm va paradoksal aforizm farqlanadi. Bu ikki til hodisasi birlashib, *aforistik paradoks* va *paradoksal aforizm* kabi yangi funksional birliklar hosil qiladi. Paradoks aforizm uchun "qurilish materiali", shuningdek, paradoks usuli aforizmda originallikni yaratish vositalari orasida eng samarali hisoblanishi e'tirof etiladi. Qisqalik, lokanizm, umumlashganlik, kutilmaganlik, alogizm singari paradoksning xususiyatlari paradoksal aforizm kontekstini shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqotlar badiiy matnda paradoks matn yaratuvchi va ma'no shakllantiruvchi funksiyalar bilan bir qatorda ba'zi stilistik funksiyalarni ham amalga oshiradi.

The only real people are the people who never existed, and if a novelist is base enough to go to life for his personages, she should at least pretend that they are creations, and not boast of them as copies.*(Oscar Wilde. The Picture of Dorian Gray) (Yagona bo'lgan haqiqiy odamlar - bu hech qachon mavjud bo'lmagan odamlar va agar yozuvchi yetarlicha asosga ega bo'lib, o'z qahramonlarini jonlantirib hayot baxsh eta olsa, u hech bo'lmaganda ularni ijodining mahsuli deb ko'rsatishi va o'xshash qahramonlari bilan maqtanmasligi kerak).* Ushbu paradoksda **real** so'zining semantik kontekstual kengayishi yuz beradi, u ko'chma ma'noda "haqiqiy san'at asari sifatida" kabi qo'llanilad.

Badiiy matnda aforistik ifoda yaratish funksiyasini paradoks orqali amalga oshirish doirasida kommunikativ va stilistik funksiyalarning: 1) yangi bilimlarni yetkazish; 2) ekspressiv dekorativ funksiyaning shakllantirishning aniqligiga erishish; 3) ma'lum haqiqatni aktuallashtirish; 4) hajviy effektni yaratish, voqelikning qisqaligiga erishish; 5) atrofdagi voqelik hodisalarining qarama-qarshi xarakterini aks ettirish. Bu funksiyalar bir vaqtning o'zida ham, turli kombinatsiyalar (birikmalar)da ham bir-birini to'ldirgan va shartlagan holda amalga oshiriladi.

Hazil (yumoristik) effektni yaratish.

1.Lord Goring: If there was less sympathy in the world there would be less trouble in the world *(Agar dunyoda hamdardlik kam bo'lsa, muammolar kamroq bo'lar edi).* Lord Caversham... That is a paradox, sir, I hate paradoxes *(Bu paradoks, janob, men paradokslardan nafratlanaman).* Lord Goring. So do I, father. Everybody one meets is a paradox nowadays. It is a great bore. It makes society so obvious *(Men ham, otaman. Bugungi kunda hamma paradoksga duch kelmoqda. Bu juda zerikarli. Bu jamiyatni shunchalik aniq ko'rsatadi).* Lord Caversham. Do you always really understand what you say, sir? *(Siz har doim aytganlaringizni tushunasizmi, janob?)* Lord Goring…Yes, father, if I listen attentively *(Ha, ota, diqqat bilan tinglasam tushunaman).(O.Wilde. An Ideal Husband, act III)*

2. I never put off till tomorrow what I can possibly do – the day afte *(Bugun qila oladigan ishni ertaga qoldirma)(O.Wilde. The Picture of Dorian Gray).*

Muallif "*Never put off till tomorrow what I can do today*" degan maqolning tarkibiy qismlarini o'rnini qayta almashtirish bilan matnda aniq ifodalanmagan ma'nolarga o'quvchi e'tiborini qaratadi.

Mazkur bobda paradoksning sintaktik xususiyatlari *ibora, sodda gap, qo'shma gap, murakkab gap, mikromatn va matn* sathida tahlil etildi. Tahlillar paradoks tarkibida qo'llaniladigan grammatik kategoriyalar ichida infinitiv konstruksiyalar alohida o'rin tutishi, bu gapning kompozitsion – sintakstik va ekspressiv baholash funksiyalari bilan asoslanishi, aynan infinitiv konstruksiyalar kengaytirilgan ergash gaplarga nisbatan kamroq til vositalarini faollashtirishni talab qiladi. Nowadays to be intelligible is to be found out (*Hozirgi vaqtda tushunish uchun bilish lozim*) (*O.Wilde. Lady Windermere's Fan),* bu o'rinda dominant komponentlari infinitivda ifodalangan.

E'tibor beradigan bo'lsak, paradoksni amalga oshirishning keng tarqalgan shakli ko'pincha parallel konstruksiyalar bo'ladi. Ba'zi tadqiqotchilar paradoksni o'ziga xos antiteza deb hisoblashadi, bu parallelizm va takrorlanishning o'ziga xos turi bo'lib, "deyarli har doim parallelizmda ham, takrorlanishda ham, paradoksda ham hukmronlik qiladi.... bu usullar ko'pincha yaqin o'zaro ta'sirida harakat qiladi va tizimli ravishda bir-birini to'ldiradi."

I always find out that one's most glaring fault is one's most important virtue *(Men har doim insonning eng ko'zga ko'ringan xatosi uning eng muhim fazilati deb bilaman) (O.Wilde. A Woman of No Importance)*.

Paradoksal aforizmlardan foydalanish paradoksning qisqaligi, ixchamligi, shuningdek, qarama-qarshi tushunchalarning uyg'unligi va davomiyligi yordam beradi. Paradoks strukturasida kulminatsiya (climax), o'sish (gradation) va pasayish (anticlimax)ni kuzatish mumkin.

"She is really wonderful, and full of surprises. Her capacity for family affection is extraordinary. When her third husband died, her hair turned quite grey from grief" *(U haqiqatan ham ajoyib va g'aroyibotlarga boy inson. Uning oilaga bo'lgan mehr-muhabbati ajoyibdir. Uchinchi eri vafot etganida, uning sochlari qayg'udan oqarib ketdi) (O.Wilde. The Picture of Dorian Gray).*

Qarama-qarshiliklar barcha sintaktik tuzilmalarda kuzatiladi, ular ikki turga bo'linadi: *implitsitiv (yashirin)* va *eksplitsitiv (aniq).* Matnning mantiqiy normasi so'z va so'zlar guruhi o'rtasidagi yashirin qarama-qarshilik paydo bo'ladi, ularning ishtiroki bu tushunchani paradoksga aylantiradi.

Kognitiv lingvistik tadqiqotlarda paradoksni tubdan yangi talqin, paradoks, kognitiv asoslari negizida lingvokognitiv birlik sifatida ko'rib chiqila boshlandi.

Kognitiv tadqiqotlarda ilgari abstrakt va mantiqiy tabiatga ega bo'lgan tafakkur, endilikda ongning eng muhim elementlari sifatida o'zining obrazli jihatlari bilan bog'liq holda talqin qilina boshladi.

Paradoks ikkita elementning qarama-qarshiligidan kelib chiqadi, ularda o'xshash narsa mavjud, ya'ni ikkita tashkil etuvchidan struktura hosil bo'ladi va birining xususiyatlari ikkinchisida takrorlanadi.

Paradoks – bu ziddiyatni yaratish, ya'ni tashqi zid tushunchalar, ichki birlikka ega bo'lgan ikki qarama-qarshi kontekstning birikmasidir. Shu bilan birga kognitiv tilshunoslik sohasidagi paradoksga oid asarlarida paradoksning qarama-qarshi va

qarama-qarshi assotsiativ mohiyati nafaqat kognitiv disonans mexanizmida ifodalanishi qayd etilgan. Bu o'rinda assotsiatsiya jarayoni muhim rol o'ynaydi.

Kognitiv tilshunoslikda paradoks obyektiv borliqni bilish vositasi sifatida ta'riflanadi, u "yashirin haqiqat joyi"ni ifodalash bilan birga yaratuvchi funksiyani bajaradi. Paradoks atrofdagi voqelik haqida aniqroq tasavvur hosil qiladi, bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikkita qarama-qarshi kontekstni birlashtiradi. Metafora singari, pardoks ijtimoiy guruhning qadriyatlarini aks ettirish mumkin, olamni idrok etishni shakllantirishi va atrofdagi olam haqida yangi bilimlarni olish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.[13]

Paradoksda alogik (mantiqsiz) til birliklari: paradoks, kontradektivlik va ziddiyat muhimdir.

Paradoks, paradoksallikka bag'ishlangan tadqiqotchilik va tavsifiy adabiyotlarda, paradoks, ziddiyat va kontradiktivlik tushunchalaridan foydalanishda nomuvofiqlik mavjud bo'lib, ular sinonim emas, ma'lum til hodisasining faoliyatining o'ziga xos sohasi sifatida tadqiq etilgan. Paradoks va ziddiyat haqida gapirganda, ziddiyat qarshi qo'yish emasligini ta'kidlash kerak, bu paradoksni qurish usullaridan biridir: "Nowadays all the married men live like bachelors and all the bachelors live like the married men"(*Hozirgi kunda barcha oilali erkaklar talabalar kabi yashaydilar va barcha talabalar oilalilar kabi yashaydilar).*

Antinomiya metatil tushunchasining o'zida mavjud bo'lgan nominal ziddiyatdir, paradoks – bu qarama-qarshi xulosaga kelish uchun zarur bo'lgan qandaydir mulohaza. Paradoksallik – bu nomuvofiqlikning eng umumlashtirilgan xususiyatidir. Paradoksni yuzaga keltiruvchi mexanizmlar ikki guruhga ajratilib o'rganildi:

1. Qarama-qarshilik texnikasini amalga oshiruvchi qurish mexanizmlari

2. Komponentli tahlil guruhi.

1) Matn tarkibiy qismlaridan birini antinomik almashtirish:

The amount of women in London who flirt with their own husbands is perfectly scandalous. It looks so bad. It is simply washing one's clean linen in public. (*O.Wilde. The Importance of Being Earnest, act I)(Londonda o'z jufti haloliga noz-karashma qiladigan ayollar soni haddan tashqari ko'p. Bu juda yomon tuyiladi. Bu shunchaki, shaxsiy muammolarni boshqalar bilan baham ko'rish demakdir)*

to wash one's dirty linen in public (*Shaxsiy muammolarni boshqalar bilan baham ko'rmoq)*

2) Maqolning birinchi komponentini almashtirish:

Fathers should be neither seen nor heard? That is the only proper basis for family life.(*O.Wilde. The Wit of Oscar Wilde)(Otalar ko'zga ko'rinmasligi kerakmi? Bu hayot uchun yagona to'g'ri asosdir).*

Children should be seen and not heard. (*Bolalar ko'rinishi kerak, lekin ularning ovozlari eshitilmasligi kerak degan jumlaning ma'nosi quyidagicha:*

---

[13] Omaziü M. Patterns of phraseological unit's modifications. Häcki Buhofer, Annelies, Harald Burger, eds. Phraseology in Motion II. – Baltmannsweiler: Schneider, 2007

kattalar suhbat oʻtkazadigan xonada bolalar tinglashlari kerak, lekin ularni toʻxtatmasliklari (eshitishlari) kerakligini anglatadi)

3) Maqollarni oʻzgartirish:

Lord Henry had not come in. He was always late on principle, his principle being that punctuality is the thief of time.*(O.Wilde. The Picture of Dorian Gray, ch. XI)* (*Lord Genri hali kelgani yoʻq. U hamma joyga kechikib borishni oʻziga odat qilib olgan edi. Uning nazarida hamma ishini aniq vaqti – soatida qiladigan odam vaqtdan yutqazadi*)

Procrastination is the thief of time (*"Kechiktirish – vaqt oʻgʻrisi" degani boʻlib, kechiktirish, yaʼni narsalarni keraksiz ravishda ortga surish – odamlarning koʻp vaqtlarini behuda sarflanishiga olib kelishini anglatadi*).

4) Kommunikativ ibora birligini oʻzgartirish:

"You gallop with a loose rein".
"Pace gives life," was the riposte".
"I shall write it in my diary to-night."
"What?"
"That a burnt child loves the fire."
"I am not even singed. My wings are untouched."
"You use them for everything, except flight." (O.Wilde. The Picture of Dorian Gray, ch. XVII)

Burnt child dreads the fire *(*People avoid the things that have hurt them*) (Ogʻzi kuygan qatiqni puflab ichadi*) vositasida amalga oshiriladi.

Bugungi kunga qadar tilshunoslar tomonidan paradoks yaratishning juda koʻp lingvistik vositalari tavsiflanadi. Paradokslar yaratishda omofonlardan foydalanish:*"If you step onto a plane and recognize a friend of yours named Jack, don't yell out "Hi, Jack!" (Agar siz samolyotga chiqsangiz va Jek ismli doʻstingizni tanisangiz, "Salom Jek!" deb baqirmang*)

